

## Abiturientlar uchun biologiya fanidan nazorat savollari javobi.

1. DNK fragmenti tarkibida jami 960 ta vodorod bog'i mavjud. A va T orasidagi vodorod bog'lari soni G va C orasidagi vodorod bog'lariga nisbati 1:1,5. Agar shu DNK tarkibidagi nukleotidlarning 25%i mutatsiya tufayli yo'qolsa, DNK ning mutatsiyadan oldingi uzunligini (nm) aniqlang (nukleotidlar orasidagi masofa 0,3 nm).

- A) **130,56**
- B) 97,92
- C) 65,28
- D) 32,64

2. Diploid navli makkajo'xori changdonidagi dastlabki jinsiy hujayralar soni 1260 tani tashkil etadi. Bu hujayralar meyoza va mitoz bo'lindi. Qo'sh urug'lanishda makkajo'xori spermiylarining 40%i qatnashgan bo'lsa, urug'lanishda qatnashmagan spermiylardagi xromosomalar soni urug'lanishda qatnashgan spermiylardagi xromosomalar sonidan qancha ko'p?

- A) 13650
- B) **20160**
- C) 50400
- D) 40320

3. Qo'y epidermisidagi xromosomalar soni shimpanze somatik hujayrasidagi xromosomalar sonidan 6 taga ko'p. Qo'y zigotasining 4 marta meridional va 2 marta ekvatorial bo'linishidan hosil bo'lgan jami blastomerlardagi xromosomalar sonini aniqlang.

- A) **3456**
- B) 3328
- C) 3439
- D) 3532

4. Diploid navli karam ( $2n=18$ ) o'simligi urug'chisida arxeosporaning meyoza bo'linishini anafaza I bosqichida mutatsiya tufayli 2 chi va 6 chi juft gomologik xromosomalar tarqalmay bir qutbga o'tib qolgan va shu qutbdan yirik hujayra rivojlangan. Undagi markaziy hujayra normal spermiy bilan urug'lansa, hosil bo'lgan endosperm hujayrasidagi xromosomalar sonini aniqlang.

- A) **31**
- B) 23
- C) 31 yoki 23
- D) 20 yoki 16

5. Botirning bir kunlik ovqati tarkibidagi yog' miqdori oqsil miqdoriga teng. Iste'mol qilingan uglevod miqdori esa, iste'mol qilingan oqsil va yog' miqdoridan 2,5 barobar ko'p. Ovqatning parchalanishidan hosil bo'lgan energiyaning 904 kkal miqdori organizm tana haroratining doimiyligini saqlash uchun sarflangan. Lipid va oqsilning parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdorini (kkal) toping.

A) 1072

B) 1080

C) 1240

D) 1560

@olimpdep



Fan olimpiadalari bo'yicha  
iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash  
**DEPARTAMENTI**